

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**YULDASHEVA DILDORA MAXMUDJANOVNA**

**TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SOHAVIY  
TERMINLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Yuldasheva Dildora Maxmudjanovna**

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida  
takomillashtirish..... 5

**Юлдашева Дилдора Махмуджановна**

Совершенствование профессиональных компетенций студентов на  
основе отраслевых терминов..... 20

**Yuldasheva Dildora Mahmudjanovna**

Improving professional competencies of students based on industry  
terms ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Spisok opublicovannых rabot  
List of published works ..... 43

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**YULDASHEVA DILDORA MAXMUDJANOVNA**

**TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SOHAVIY  
TERMINLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Ped1552 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Isakulova Nilufar Janikulovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shodiyeva Matluba Jurayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Babaniyazova Nargiza Po'latovna**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; ye-mail: tdpu\_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_» \_\_\_\_ da \_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**B.S.Abdullayeva**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

**R.G.Isyanov**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

**Z.N.Mamarajabova**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda mahsulotlarning eksport miqyosi kengayib, sohaviy terminlarning bir tildan tarjima qilish jarayoni rivojlanmoqda, texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu borada to‘qimachilik va yengil sanoatga oid terminlarni tarjima qilish bilan bog‘liq muammolar, terminlarning leksikasini o‘rgatish metodikasi, mutaxassis tilini rivojlantirish tendensiyalarini o‘rganish, to‘qimachilik va yengil sanoat sohasidagi terminlarning leksik xususiyatlari va ular terminologiyasining tipologik tasnifini qiyoslash bo‘yicha amaliy loyihalar tizimli amalga oshirilmoqda.

Jahon ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida sanoat sohasi bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalarning sohaviy terminlarga oid bilimlarini takomillashtirish hamda chet tilida kompetent muloqotga kirishish qobiliyati rivojlangan mutaxassis shaxsini tarbiyalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta‘lim muassasalarida nolisoniy mutaxassislik talabalarining kasbiy kompetentligini boshqa madaniyat vakillari bilan o‘zaro hamkorlik asosida rivojlantirishni modulli tashkil etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘qitishning ilg‘or metodlarini joriy etish va hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarni sohaviy terminlar orqali takomillashtirish, xalqaro standartlarga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda nofilologik oliy ta‘lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, xalqaro, Umumyevropa standartlari (CEFR. Common European Framework of Reference for Languages)<sup>1</sup> asosida ta‘lim mazmunini tashkil etish, o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish orqali chet tili ta‘limi sifatini oshirishning huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash, ta‘lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish...”<sup>2</sup> ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada, mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan bo‘lgan to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarini uchun yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha

---

<sup>1</sup> Council of Europe. (2011). The Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Cambridge: Cambridge University Press.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. PF-4947-son. 2017-yil 7-fevral. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70- modda.

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi VMQ-610-son «Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 10-oktyabrdagi VMQ-816-son «Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida» qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy tillarni o'qitishning lingvistik jihatlari G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, D.U.Xoshimova, M.Djusupov, N.J.Isakulova, X.D.Poluanova, S.A.Misirov, D.X.Kadirbekova, Sh.N.Abdullayeva, F.S.Abdullayeva; ta'lim sifatini oshirishni nazorat qilish, ijodiy va kasbiy tafakkurni takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari B.C.Abdullayeva, R.X.Djurayev, G.A.Asilova, K.D.Risqulova, N.A.Muslimov, A.T.Nurmanov, E.G.Azimov va boshqalarning tadqiqot ishlarida yoritilgan.

MDH mamlakatlarida chet tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish D.V.Bulatova, O.V.Veremeychik, L.K.Mazunova, T.S.Zeleneskaya, N.D.Galskova, N.I.Geiz; to'qimachilik va yengil sanoat sohasidagi terminlar O.A.Nikolayeva, M.A.Soliyeva, A.V.Kuvshinova, O.A.Novikova, P.S.Medvedeva va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Yevropa mamlakatlarida M.Fasmer, F.F.Vang, Toft B.Aspland, J.Richard, Flick, W.Yernest, H.K.Rouyette, S.Caulfeild, S.Blanche va boshqalar sanoat sohasidagi terminlar, xorijiy til leksikografik xususiyatlari va ularning maxsus maqsadlarda o'qitish metodikasini faollashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2020-yy).

**Tadqiqotning maqsadi** talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash;

to'qimachilik va yengil sanoat sohasidagi terminlar asosida rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish;

to'qimachilik va yengil sanoat terminlariga o'qitishning interfaol modelini tamoyillashtirish;

to‘qimachilik va yengil sanoat terminlarni o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish jarayoni olingan bo‘lib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Farg‘ona politexnika instituti, Namangan muhandislik-texnologiyalari instituti, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining 695 nafar 1-3-bosqich talabasi jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari** Tadqiqotda adekvat holatda o‘rganishni ta‘minlashga qaratilgan: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so‘rov, test, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma‘lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.) metodlar majmui qo‘llandi

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidigilardan iborat:

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish imkoniyatlari hissiy-irodaviy, motivasion-qiymatli, kognitiv-kommunikativ, kreativ-faoliyatli komponentlar idiyentiv-to‘ldiruvchi jihatlariga ta‘sir vositalarini faktik aniqlash hamda to‘qimachilik va engil sanoat sohasiga oid terminlar tipologiyasini lingvistik tasniflash mazmuniga proporsional moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish samaradorligi to‘qimachilik va engil sanoat sohasidagi terminlaridan foydalanish izchilligini ta‘minlashga qaratilgan o‘zini o‘zi rivojlantirishni loyihalash, mustaqil kasbiy o‘shishni prognoz qilish hamda kasbga tegishli ma‘lumotlarni mustaqil qidirish, shaxsiy tajribadan ta‘lim manbai sifatida foydalanishga intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish modeli ko‘p tilli, ko‘p madaniyatli, tarmoqlararo muloqot, mijozni aniqlash, loyihalar va jarayonlarni boshqarish qobiliyatlarini prognostik aniqlash hamda yuqori noaniqlik va vazifa shartlarini tez o‘zgartirish rejimida ishlashga yo‘naltirilgan didaktik mazmunning ko‘p funksional komponentlari integrativ xususiyatlarini maqsadli yaxlitlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish texnologiyalari to‘qimachilik va engil sanoat sohasidagi terminlardan foydalanish va o‘zlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan elektron axborot dasturlarni bosqichma-bosqich kiritish hamda nutq va yozma savodxonlik o‘zaro proporsional bog‘liqligini barqaror hisobga olishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Fabric production and design for student of specialty clothing manufacture construction and technology”, “Industry and technology for technology machines and equipments of light industry” nomli o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan;

“Textile and dress designing” dasturiy ta’minoti, “To‘qimachilik va liboslarni loyihalashtirish” nomli mobil ilova dasturi va [www.textiletest.uz](http://www.textiletest.uz) to‘qimachilik va yengil sanoat sohasi bo‘yicha bilimlarni darajasini belgilash va o‘zlashtirishning axborot kompyuter texnologiya bo‘yicha elektron manbasi yaratilgan;

“Yengil sanoat sohasiga oid terminlarning ingliz-o‘zbek-rus tillarida izohli lug‘ati”, “To‘qimachilik sohasiga oid terminlar lug‘ati (ingliz, o‘zbek, rus tillarida)” nashr etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** bilish nazariyasi metodologiyasi hamda pedagogik ta’lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanilgani; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi tadqiqot metodlari qo‘llangani; tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta’minlangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning kasbiy kompetensiyalari tarkibiy komponentlari, kompetensiyalar tizimi, to‘qimachilik va yengil sanoat sohasidagi terminlarning o‘ziga xos xususiyatlari, termin tasniflari va termin so‘z yasash xususiyatlari aniqlashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to‘qimachilik va yengil sanoat sohasida terminlar bo‘yicha leksik mashqlar tizimi, mobil ilova dasturi, “Textile and dress designing” dasturiy ta’minotidan oliy ta’lim muassasalarida darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini hissiy-irodaviy, motivasion-qiyamatli, kognitiv-kommunikativ, kreativ-faoliyatli komponentlar idiyentiv-to‘ldiruvchi jihatlariga ta’sir vositalarini faktik aniqlash hamda to‘qimachilik va engil sanoat sohasiga oid terminlar tipologiyasini lingvistik tasniflash mazmuniga proporsional moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar  $\Phi 3-20160908165532$ - raqamli “Qoraqolpoq tilini yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotni rivojlantirish metdokasi” mavzusidagi loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 15-sentyabrdagi 02-07-3881/04-coH dalolatnomasi). Natijada, talabalarning kasbiy kompetensiyasi tarkibiy komponentlarini aniqlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish samaradorligi to‘qimachilik va engil sanoat sohasidagi terminlaridan foydalanish izchilligini ta’minlashga qaratilgan o‘zini o‘zi rivojlantirishni loyihalash, mustaqil kasbiy o‘shni prognoz qilish hamda kasbga tegishli ma’lumotlarni mustaqil qidirish, shaxsiy tajribadan ta’lim manbai sifatida foydalanishga intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “561624-EPP-1-1-UK-EPPKA2-CBHE-SP IMEP” nomli xalqaro loyiha doirasida

belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 15-sentyabrdagi 02-07-3881/04-son dalolatnomasi). Natijada, to'qimachilik va engil sanoat sohasidagi terminlarni o'qitishning tamoyillarini takomillashtirish samaradorligi oshgan;

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish modeli ko'p tilli, ko'p madaniyatli, tarmoqlararo muloqot, mijozni aniqlash, loyihalar va jarayonlarni boshqarish qobiliyatlarini prognostik aniqlash hamda yuqori noaniqlik va vazifa shartlarini tez o'zgartirish rejimida ishlashga yo'naltirilgan didaktik mazmunning ko'p funksional komponentlari integrativ xususiyatlarini maqsadli yaxlitlash asosida takomillashtirishga oid xulosalar  $\Phi 3$ -20160908165532-raqamli "Qoraqolpoq tilini yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabit rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 15-sentyabrdagi 02-07-3881/04-son dalolatnomasi). Natijada, to'qimachilik va engil sanoat terminlarni o'qitishning interfaol modelini tamoyillashtirishga sharoit yaratilgan;

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirish texnologiyalari to'qimachilik va engil sanoat sohasidagi terminlardan foydalanish va o'zlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan elektron axborot dasturlarni bosqichma-bosqich kiritish hamda nutq va yozma savodxonlik o'zaro proporsional bog'liqligini barqaror hisobga olishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "561624-EPP-1-1-UK-EPPKA2-CBHE-SP IMEP" nomli xalqaro loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 15-sentyabrdagi 02-07-3881/04-son dalolatnomasi). Natijada, to'qimachilik va engil sanoat terminlarini o'qitish samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertasiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 121 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; fan va texnologiyalar ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan; tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab

berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Talabalar kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “kasbiy kompetensiya” tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, to‘qimachilik va yengil sanoat sohasidagi terminlarning shakllanish va rivojlanish davrlari, kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish manbalari va tipologik tasnifi yoritilgan.

“Kompetensiya” termini tilshunoslikda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qo‘llangan va insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqatini bildirgan. N.Chomsky, J.Raven, A.Zimnyaya, F.Delamare va J.Winterton, H.Meyer va A.Klapper, A.Xutorskoy va boshqalar tomonidan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga berilgan ta’riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o‘zini tutish, kompetentlik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya’ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi. Ularni umumlashtirgan holda, bugungi kunda ta’lim jarayonida faol qo‘llanayotgan ushbu tushunchalarni sharhlashda quyidagi xulosaga keldik: kompetensiya – ma’lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko‘nikma va malakalarning samarali qo‘llanishi; kompetentlik esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan layoqatdir.

Aksariyat tadqiqotlar kompetensiyalarning to‘liq tasnifi ishlab chiqilgan. Ular tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalarga ajratilib, ta’lim oluvchilarda tafakkurni rivojlantirishga doir tayanch kompetensiyalar turlari tadqiq qilingan. Tayanch kompetensiyalar ta’lim oluvchida zarur axborotni izlab topish va undan foydalanish, jamoada ishlash, o‘rganish layoqatini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ular quyidagi kompetensiyalar ta’riflari orqali yoritildi (1-jadvalga qarang).

Umumiy kompetensiyalar turli sohalarning faktlari va tushunchalariga tayangan holda muammolarni hal qilish layoqati mavjudligini ko‘rsatadi.

Xususiy kompetensiyalarni esa o‘quv fani doirasida shakllantiriladigan, ya’ni fanni o‘qitish jarayonida hosil bo‘ladigan bilim, malaka va ko‘nikmalar yig‘indisi deb ta’riflaydi.

Metodik termin va tushunchalar lug‘ati esa xususiy kompetensiyalarga til ta’limi misolida ta’rif beradi: til o‘rganish jarayonida shakllanadigan va tilni bilishning ma’lum darajasini ko‘rsatadigan xususiy kompetensiyalar, agarda o‘rganilayotgan til kasbiy faoliyat vositasi bo‘lsa, quyidagi kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi: lingvistik (tilga oid) kompetensiya, nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, strategik kompetensiya va kasbiy kompetensiya. Demak, tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan to‘qimachilik va yengil sanoat sohasidagi sohaviy terminlar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish xususiy kompetensiyalar va kasbiy kompetensiyalar sirasiga kiradi.


“Kasbiy kompetensiyalar” tushunchasi amaliyotda asosan talabaning oldiga qo‘yilgan vazifalarni talablar asosida bajarish layoqati, qobiliyatlarini anglatadi. Ushbu talablardan kelib chiqib, kasbiy kompetentlikni aniqlaydigan bir qator sifatlar mavjudligi aniqlandi. Kasbiy kompetensiyalar, bizning holatda, asosan to‘qimachilik va yengil sanoat sohasida mutaxassis yoki xodimning belgilangan standartlarga muvofiq vazifalarni bajara olish layoqatini anglatadi.

## Tayanch kompetensiyalar

T.r.	Kompetensiya	Ta'rifi
1.	qadriyat-mazmun kompetensiyalari	shaxsning qadriyatlar borasidagi tasavvurlari va dunyoqarashi, uning atrofdagi olamni ko'rish va idrok etish, unda o'z o'rnini topish, o'zining undagi roli va vazifasini anglash, o'z xatti-harakatlarini maqsad va mazmun jihatdan asoslab berish, qarorlar qabul qilishga oid layoqati.
2.	umummadaniy kompetensiyalar	muayyan bilim va faoliyatga oid tajriba zarur bo'lgan hamda shaxs tomonidan to'liq idrok qilinadigan masalalar doirasini aks ettiradi.
3.	o'quv-bilish kompetensiyalari	mustaqil ravishda bilim olishga oid kompetensiyalar yig'indisi bo'lib, o'rganiladigan hayotiy obyektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik, umumo'quv faoliyati elementlarini o'z ichiga oladi.
4.	axborot kompetensiyalari	real obyektlar (televizor, pleyer, telefon, faks, kompyuter, printer, modem, skaner) va axborot texnologiyalari (audio- va videoyozuvlar, ommaviy axborot vositalari, elektron pochta, Internet) yordamida zarur axborotni mustaqil tarzda izlab topish, tahlil qilish va ajratib olish, uni jamlash, o'zgartirish, saqlash va uzatishni anglatadi.
5.	muloqot kompetensiyalari	turmush va faoliyatda zarur bo'lgan tillarni, atrofdagi va ma'lum bir masofa ortidagi odamlar hamda hodisalar bilan bog'lanish usullarini bilish, guruhda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish, jamoada turli ijtimoiy rollarni bajarish layoqatidan iborat.
6.	ijtimoiy-mehnat kompetensiyalari	jamoatchilik faoliyati (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifalarini bajarish), ijtimoiy mehnat sohasi (iste'molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchining huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar sohasi, iqtisodiy va huquqiy masalalar, kasbiy sohada o'z o'rnini topishga qaratilgan.
7.	komillik kompetensiyalari	shaxsning jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishi, o'z hissiyotlarini idora qilishi va o'z-o'ziga yordam berish usullarini egallashiga yo'naltirilgandir.

Mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha chet tilni o'zlashtirish predmeti bu tilning asosidagi ilmiy, texnikaviy yoki kasbiy kompetensiyaga tegishlidir. To'qimachilik va yengil sanoat sohasida til o'rgatish ta'limida sohaviy terminlarga alohida o'rin

ajratilgan bo'lsa-da, tilni o'rgatishda bo'lajak kadrlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish quyidagi komponentlarga ajratiladi (1-rasmga qarang).



### **1-rasm. To'qimachilik va yengil sanoat sohasidagi oliy ta'lim muassasa talabalarining til o'rgatish kasbiy kompetensiyasi**

Talaba o'z sohasiga tegishli terminlarni, avvalo, kasbiy kompetensiyasi asosida sohaviy terminlarni tegishli tarmoqlar va matnlar orqali o'rganadi. To'qimachilik va yengil sanoat sohasi terminlarini o'rganish, avvalo, ushbu yo'nalishlar, aynan to'qimachilik va yengil sanoatga tegishli terminlar xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Muayyan yo'nalishlardagi sohaviy terminlar o'z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminlarni u yoki bu darajada qamrab olishi lingvistikada e'tirof etilgan voqelik hisoblanadi. Sohaviy terminlarni ilm-fan, texnika taraqqiyotidagi keskin yuksalish va ishlab chiqarish, to'qimachilik va yengil sanoat sohasidagi terminlarning jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan determinatsiyalangan XIX asrda yuzaga kelgan terminning tabiatiga ilmiy-falsafiy qiziqish bu kabi tadqiqotlar uchun zamin yaratdi.

XVIII-XIX asrlarda terminologiya muammolari tilshunoslarning diqqat markazida bo'lishining asosiy sabablaridan biri terminlarning yaratilishi, ikkinchi sababi ekstralingvistik omillarning terminologiyaga ta'siri bilan bog'liq. Biroq

tadqiqotchilarni terminlarda uchraydigan sinonimiya va polisemiya muammolari, shuningdek, termin-leksemalar, gibrid terminlar va sof terminlarning kontekstdagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlari, muayyan tushunchalar bilan o'zaro aloqalarning xilma-xilligi ko'proq o'ylantirgan. Tilshunoslik fani rivojlanib, o'z tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin, terminlarni o'rganish uning eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. «Termin» va «terminologiya» masalalariga oid ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, turli ta'riflar berilgan. «Termin» leksemasi lotincha «terminus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «oxiri», «chek», «chegara», «tugash» degan ma'nolarni bildiradi. Termin – mazmunan muayyan mantiqiy tushunchalar tizimidagi ma'lum bir-biri bilan shartsiz ravishda (majburan) nisbatlanadigan (qiyoslanadigan) so'z. Terminning tilshunoslik obyekti sifatida belgilanishi va uning tizimli ravishda o'rganilishi «termin» tushunchasi izoh(definisiya)larining shakllanishi, terminning tavsiflanishi, u bilan bog'liq muammolarning yechimlari ishlab chiqilishi, pirovardida, terminshunoslik fanining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Terminologiyaga oid ishlarning barchasida aytilishicha, u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definisiyaga ega bo'lgan va asosan, nominativ funktsiya bajaradigan birliklar termin hisoblanadi. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham u yoki bu tushunchani ifodalash uchun bir qancha usullardan foydalaniladi. Eng faol qollanadigani sintaktik va morfologik usullardir. So'zning semantik taraqqiyoti tilda yangi so'zning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi va terminologiyani boyitishga xizmat qiladi. Morfologik usul bilan termin yasashda o'zak-negizga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi. Aslida, termin va oddiy so'zning farqli jihatlariga e'tibor qaratmoqchi bo'lsak, bu hodisalarga o'sha soha bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning fikrlariga nazar solish va shu asosda termin va oddiy so'z oppozitsiyasini hal qilish maqsadga muvofiqdir. Odatda, tadqiqotchilar terminlarning quyidagi belgilarini ko'rsatadi: termin bir ma'noli yoki bir ma'noli tendensiyaga ega; termin aniq, nominativ funktsiyaga ega bo'lib, unga emosiya, ekspressivlik, modallik funktsiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi; terminning ma'nosi tushunchaga tengdir; termin stilistik jihatdan neytraldir; terminologik leksika alohida sistemadir va h.k.

To'qimachilik va yengil sanoat sohasi bo'yicha o'zbek tilida mavjud bo'lgan original va tarjima asarlar, ikki tilli va terminologik lug'atlar, yaratilgan o'quv qo'llanmalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, qator kamchilik va nuqsonlar mavjud: birinchidan, o'zbek tilidagi mavjud termin tizimlarning shakllanishi, rivoji va boyib borishi bir xil darajada emas, ikkinchidan, ba'zi fan sohalari terminologiyalasi haligacha yaxshi yoki umuman o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan o'zbek tilining soha terminlarini ham tartibga solish masalalari bilan alohida shug'ullanish zarurati kelib chiqmoqda.

To'qimachilik va yengil sanoat rivojlanishning umumiy jarayoni va bosqichlari to'qimachilik sanoat lug'atining evolyusiyasini ko'rib chiqish va to'qimachilik sohalari shakllanishi, rivojlanishi va asosiy leksikografik tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Terminologiyaning rivojlanish davrlari: XVIII asr, XIX asr – XX asr boshlari, XX asrning ikkinchi yarmi, XXI asr deb ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq. To'qimachilik va yengil sanoat terminologiyasini davrlashtirish

terminologik leksika tizimida ekstralingvistik va intralingvistik omillar orqali sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi: ibtidoiy davr; aniq davr; XVIII-XIX asr. O'sha paytlar ilm-fan bo'yicha to'qimachilik sohasidagi termin leksikalarni tizimlashtirish bo'yicha ishlarining boshlang'ich davri edi. XVIII asrlardan boshlab, bir qator tadqiqotchilar to'qimachilik terminlarini ilmiy asosda tuzish, muayyan tizimlarni yaratishga harakat qildi, leksikografik tahlil, asosan, zamonaviy kataloglarning lug'at terminlarni tanlash mezon, tavsiflash usullariga muvofiq amalga oshirildi. Shu tariqa to'qimachilik va yengil sanoat sohasiga tegishli lug'at turlari aniqlandi:

ideografik (teazura) lug'atlar leksikografikaning maxsus sohasi bo'lib, alfavit tarzda yuklanadi. Bunday ideografik usul ma'lum bir sohaning rivojlanish mantiqiga mos keladi va o'z ma'nosi bilan terminlar bilan ifodalanadi;

bir tilli lug'atlarda ma'lum bir tildagi so'zlar va iboralarning ma'nolari izohlanadi yo o'sha til so'zlarining to'g'ri yozilishi (imlosi) ko'rsatiladi yoki so'z va iboralarning kelib chiqishi bayon qilinadi;

izohli ensiklopedik lug'atlar biror soha bo'yicha sistemalashtirilgan ma'lumotlarni beradi;

ikki tilli lug'atlarda bir tilning so'zlari ikkinchi bir tilga tarjima qilib beriladi. Ikki tilli tarjima lug'atlarda bir tildagi so'zlarning polisemantik ma'nolari, omonimik xususiyatlari, sinonimik qatorlari ikkinchi bir tildagi so'zlar bilan izohlanadi. Shuningdek, bir tilning frazeologik iboralari ikkinchi tildagi frazeologik iboralarning ekvivalentlari bilan beriladi, ekvivalentlari ikkinchi tilda bo'lmagan taqdirda, u iboralar ma'nosi izohlanadi;

elektron lug'atlarning leksikografik tahlil ro'yxatga olishda, usullarining ta'rifi, fiksatsiyasi, mavjud lug'at manbalarida tavsiflash vositalaridir.

Talabalar kasbiy kompetensiyasining hissiy-irodaviy, motivasion-qiymatli, kognitiv, kommunikativ, kreativ-faoliyatli komponentlari to'qimachilik va yengil sanoat sohasiga oid terminlar tipologiyasi bo'yicha aniqlashtirilgan. To'qimachilik va yengil sanoat terminlarning o'ziga xos xususiyatlari termin nominatsiyalar shakllari va ularning asosida namoyon etish sohalari, ilmiy terminlar guruhi, lingvistik xususiyatlari, bevosita nominatsiyalash usulida yasalgan qismini guruhlash bo'yicha aniqlangan.

Dissertasiyaning **“Talabalar kasbiy kompetensiyalarini sohaviy terminlar asosida takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida to'qimachilik va yengil sanoat sohasidagi terminlarni o'qitishning didaktik va maxsus prinsiplari, sohaviy terminlar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalari modeli hamda AKT, manbalardan foydalanish masalalari yoritilgan.


Ta'limning zamonaviy modeli, konsepsiyasiga ko'ra, ta'lim insoniyat madaniyati bilan bir xil bo'lgan pedagogik yo'naltirilgan ijtimoiy tajriba sifatida qaraladi. Ta'lim mazmuni milliy va xalqaro ta'lim standartlari, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining yo'riqnomalari, o'quv dasturlari va rejalari bilan belgilanadi.

Semantik jihatdan ta'lim modeli pedagogik modellar (o'quv qo'llanmalar va uslubiy) orqali amalga oshiriladigan didaktik asosdan (o'qitish usullari va shakllari) iborat. Kommunikativ kognitiv yondashuv doirasida o'quv obyektning nutqiy

faoliyati bo‘lib, o‘rganishning asosiy bo‘limi – bu dunyoning manzaralarini ma’lum bir lisoniy nuqtai nazardan aks ettiradigan muammoli vaziyat, shu bilan birga, o‘qitishning yetakchi usuli o‘rganuvchilarning kommunikatsion muammo yechimni topishi va kommunikatsion vaziyatga duch kelishi va nutqiy bo‘lmagan harakatlarni amalga oshirishidir. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, texnik termin va matnlar, to‘qimachilik va yengil sanoat sohasida uchraydigan ayrim so‘zlarga ko‘proq e’tibor berishni joiz. Bunday yondashuv talabalarning to‘qimachilik mutaxassislardan ta’lim sifati yuqori darajada rivojlangan ilg‘or chet el tajribalaridan o‘rganish va, qolaversa, texnik adabiyotlar, sohaga oid barcha me’yoriy hujjatlarni sof tilda qabul qilishda qo‘l keladi. Shuni aytish joizki, O‘zbekiston sharoitida texnika oliy o‘quv yurtida chet tilini o‘rganish/o‘rgatish davomida ayrim muammolarga duch kelamiz. Bular jumladan, kasbiy mutaxassislik bo‘yicha fakultetlar yo‘nalishda ta’lim oluvchi talabalarda variativlikning yo‘qligi; kasbiy yo‘nalishda kommunikativ kompetentlikni oshirishda, nofilologik oliy o‘quv yurti sharoitida chet tilni o‘rganishda tizimlilik va mazmundorligi biroz mos kelmasligi; kommunikativ kasbiy yo‘naltirilganlikni muqobilligi, aniq ta’lim darajasi uzluksiz bo‘lishi lozimligi; chet tilni o‘qitish nafaqat kurs, balki butun o‘quv yili davomida kompleks ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi. Kommunikativ muloqot ko‘p aspektlilik bilan xarakterlanadi. Chet tilda kompetensiya komponentlarini egallashda til o‘rganuvchi o‘rgatilayotgan chet til bo‘yicha bilimlar sistemasi, o‘z ona tilidagi talqini madaniyatlararo muloqotda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga turtki bo‘ladi (2-rasmga qarang).

Shu sababli chet tilini faqat intuitiv o‘zlashtirishga olib boradigan o‘zga tilli muloqotning avvalgi talqini bugungi globallashuv, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va jamiyatning axborot maydonini kengaytirish sharoitida mutlaqo yetarli emas. Bu talabalarni fan va texnikaning turli sohalari bo‘yicha o‘qitish sinxron va amaliy jihatdan, shuningdek, madaniyat bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirilishi lozimligini anglatadi, chunki kognitiv jihatdan til birliklari konseptlar bilan o‘zaro hamda til va madaniyatga oid o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi, ya’ni ingliz tilini o‘rgatib, ingliz madaniyati va tilini o‘qitamiz.

